

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«TILSHUNOSLIK VA TABIIY FANLAR»

FANIDAN

GLOSSARIY

NAMANGAN-2021

ASOSIY TERMINLAR RO'YXATI

"Ilmi qol" - so`z bilan ifodalash, o`rganish yo`li orqali berilishi mumkin bo`lgan bilim. Abu Rayhon Beruniy "Qol ilmi"ning yetuk vaqili edi, u avlodlar uchun nodir asarlar yozib qoldirgan.

"Ilmi xol"- har bir so`fiyning, o`z tafakkuri va e`tiqodiga xos, qalb ko`zi bilan yetishgan, o`zgalarga o`rgatish imkonini bo`lmagan bilim. Bahouddin Naqshband "Xol ilmi"ning yetuk vaqili bo`lib, u yo`zlab izdoshlariga ruhiyat sabog`ini bergan.

Fan - tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda atrofdagi muhitga ta'sir ko`rsatuvchi bilimlar sistemasi. Har bir fan insonlarining olamni kuzatishi, bilishi jarayonida, uning natijasida paydo bo`ladi. Fanning asosi bilishdir.

Oraz - sezgi organlarimiz yordamida his qilish mumkin bo`lgan belgilar. Har qanday narsa dastlab bizning sezgi organlarimizga ta'sir qiladi. Oraz Aristotel falsafasidagi aksidensiyani bildiradi. Farobiyning tushuntirishicha, orazni besh sezgi organlari yordamida his etamiz. Xususan, rang ko`rish sezgi organi orqali; ovoz eshitish organi orqali; maza-ta'm maza sezgi organi orqali, predmetlarning holati: sovuq-issiqligi, qattiq-yumshoqligi tana sevgisi orqali, hid hidlash organi orqali his etiladi.

Javhar - Solishtirish, quioslash, mantiqiy umumlashtirish orqali hosil qilingan bilim , nazariy (idrokiy) bilim. Idrokiy bilish hissiy bilimlarni solishtirish, qiyoslash, umumlashtirish, hissiy bilimlarning hosil bo`lishiga asos bo`lgan orazlar (aksidensiyalar) zamirida yashiringan mohiyatni-jovharni aniqlash orqali hosil qilinadi.

Sistema -bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning o`zaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlik. Sistemaning birinchi jihat shuki, sistema muayyan ichki tuzilishga ega bo`lib, ikki va undan ortiq qismlarning o`zaro munosabatidan tashkil topali. Sistemaning ikkinchi jihat shundan iboratki, sistemani tashkil etgan uzvar o`zaro shartlangan, bir-birini taqozo etuvchi ko`p pog`onali munosabatda bo`ladi. Sistemaning uchinchi jihat shundaki, har qanday sistema ichki bo`linuvchanlik xususiyatiga ega bo`lganligi tufayli, sistemani tashkil etgan qismlar bilan sistema o`rtasida ham munosabat bo`ladi. Bu munosabatni: "...dan tashkil topadi", "...ning tarkibiga kiradi" ifodasi bilan ko`rsatish mumkin, boshqacha aytganda, u butun va bo`lak, tur va jins munosabatini o`z ichiga oladi. Sistemaning to`rtinchi jihat uning ichki tuzilishining pogonaviyligidir. Ya`ni butun va bo`laklik, tur va jinslik munosabati nisbiy harakterga ega. Ma'lum jinslarga nisbatan tur, bo`laklarga nisbatan butun bo`lgan qism boshqa butun yoki tur tarkibiga kirib bo`lak yoki jins bo`lishi mumkin. Sistemaning beshinchi jihat substansionalligidir. Ya`ni substansiya va uni bevosita kuzatishda tazohirlar orqali voqelanishi, umumiylilik - xususiylik, mohiyat - hodisa, imkoniyat - voqelik dialektikasining o`zida namoyon qilishidir.

Til - fikrni shakllantiruvchi va ifodalovchi vosita.

Metodologik asos- ilmiy tadqiqotlarning kompasi vazifasini bajaradi. Uning umumiyligi jihatlari quyidagilardir: 1) obyektga substansional (zotiy) yondashuv. Bunda umumiylilik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik dialektikasini hisobga olish; 2) obyektning ziddiyatli tabiatini ochish. Har qaysi tadqiqot obyekti ichki ziddiyatlardan iborat ekanligini, ana shu ziddiyatlar ob'ektning uzluksiz rivojlanishining asosi ekanligini ko`rsatish; 3) obyektning sistemaviy xususiyatini yoritish. Buning uchun har qaysi obyekt muayyan katta butunlikning uzviy bir bo`lagi ekanligi va, ayni paytda, u muayyan ichki unsurlarning o`zaro munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik ekanligini namoyon qilish; 4) shakl va mazmun dialektikasini e'tiborga olish. Ularning o`zaro munosabatini yoritish; 5) teng kimmattli elementlar o`rtasida va turli kimmattli birliklar (butun bilan bo`lak, tur bilan jins) o`rtasidagi munosabat turlarini yoritish va hokazolar.

Substansiya (lot. "mohiyat") atamasi falsafada antik davrlardan buyon ishlataladi. Lekin falsafa tarixida bu atama xilma-xil tushunchalarni ifodalash uchun qo'llanildi. Antik davr filosoflari substansiya atamasi ostida olamdagি barcha narsa va hodisalarining asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsani tushunadilar. O`rta asr Sharq falsafasining al-Kindiy, ar-Roziy, Farobi, Ibn Sino, Ibn Rushd singari namoyandalar substansiyani hamma narsaning asosi, ularning mohiyati, deb izohlaydilar.

Doimiy, barqaror narsa "**javhar**" ("**substansiya**") deb ataladi. Almashinib, o`zgarib turuvchi narsalarni "**oraz**" ("**aksidensiya**") deyiladi.

Til birliklari -ema bilan tugaydigan (fonema, morfema, leksema kabi) atamalar orqali ifodalanganadi.

Emik birliklar -ema bilan tugagan atamalar (fonema, morfema, leksema kabi) orqali ifodalangan birliklarni o`z ichiga olsa, **etik birliklar** variant yoki allo- bilan boshlangan (allofon, allomorf, alloseks) atamalar orqali ifodalangan birliklarni o`z ichiga oladi.

Grammatik ma'no sistemasida obyektiv borliqdagi predmetlar o`rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimimiz ong orqali aks etadi. Grammatik ma'noni uch guruhga bo`lish mumkin:

- 1) nosintaktik (referensional)
- 2) sintaktik (relyasion)
- 3) subyektiv

Birinchi ma'noni turkumlovchi, ikkinchi ma'noni toifaviy (kategorial), uchinchi ma'noni esa notoifaviy (nokategorial) ma'nolar deb ham tasniflash mumkin.

Grammatik shakl muayyan grammatik ma'noning tashqi ifodalananish tomoni - moddiy tomonidir. Grammatik shakl bilan grammatik ma'no falsafadagi shakl va mazmun dialektikasini o`zida namoyon qiladi. Shakl va mazmun bir yaxlitlikning ikki tomoni - biri tashqi, ikkinchisi esa ichki tomoni sanaladi. Shuning uchun ular bir-birini taqozo qiladi. Birisiz ikkinchisining bo`lishi mumkin emas.

Sinergetika dialektikaning bir shakli bo`lib, tabiat va jamiyat taraqqiyotida oraliq, o`tkinchi holatlarning bo`lishi mumkinligini e'tirof etadi. U taraqqiyot jarayonida beqaror holat bilan barqaror holat o`rtasidagi qonuniyatga tayanadi. Barqarorlik qonuniyat va sababiyat natijasidir. Uni oldindan bilish, boshqarish

mumkin. Barqarorlik hodisaning mohiyatini tushunish uchun unga teran va sinchkov nazar tashlash lozim bo`ladi.

Dialektikadagi taraqqiyot qonunlari - miqdor va sifat o`zgarishlari birligi qonuni, qarama-qarshiliklar birligi qonuni, inkorni inkor qonuni.

Mantiqiy yo`nalish - tilning tafakkurga munosabati asosida o`rganuvchi tilshunoslar oqimi. Mantiqiy yo`nalish tilshunoslikdagi quyidagi muammolar bo`yicha fikr yuritadi: 1) gnoseologiya muammolari; 2) tilning o`ziga xos tuzilish xususiyatlarini emas, balki barcha tillar uchun universal tomonlarini yoritish; 3) grammatik kategoriyalarni mantiqning universal kategoriyalari asosida aniqlash: so`zni tushuncha asosida, gapni hukm asosida izohlash va boshq.; 4) qanday til shakliga ega bo`lishidan qat’iy nazar, yagona tahlil tamoyilini ishlab chiqish; 5) diaxronik tahlildan ko`ra sinxron tahlilni ustun qo`yish va shu bilan bog`liq ravishda tarixiy va qiyosiy-tarixiy grammatikaga nisbatan tavsifiy grammatikaga e'tibor berish; 6) ko`proq gap va semantiqa tahliliga diqqatl qilish

"Por-Royal grammatikasi" - 1660-yilda tilshunoslik nazariyasida keskin burilish ro`y berdi. Parij yaqinidagi Por-Royal cherkovida mashhur filosof va mantiqchi Arno bilan grammatist Landslo hamkorligida dunyoga "Por-Royal grammatikasi" nomi bilan tarqalgan "Umumiyl ratsional grammatika" yaratildi. Bu grammatikaning yaratilishi tilshunoslik tarixida yangi sahifa ochdi. "Por-Royal grammatikasi" ilk bor bir qator konkret tillarning faktlari asosida umumiy grammatika sistemasini yaratish mumkinligini namoyish etdi. Dunyoga sistem-struktur tilshunoslikning asoschisi sifatida tanilgan Ferdinand de Sossyur ham bu grammatikaga yuksak baho beradi. Shu grammatikaning yaratilishi bilan tilni ilmiy o`rganish boshlandi. Unda birinchi marta lingvistik tadqiqot predmeti chegaralab berildi. "Por-Royal grammatikasi" mualliflari tafakkur universalligiga e'tibor bergen holda, tafakkurning moddiylashtiruvchisi bo`lgan tilda ham universal jihatlar mavjudligini ta'kidladilar. Ularning fikricha, inson ongiga ta'sir etuvchi har qanday tadqiqot ob'ektini ratsional tomonlarni topish asosida umumiy grammatikani yaratish mumkinligini bayon qildilar. Bu bilan bir necha tillarni bir vaqtida oson o`rganishning asosiy tamoyillarini belgilashga harakat qildilar.

"Por-Royal grammatikasi"da mualliflar barcha tillar tuzilishi haqida fikr yuritishni maqsad qilsalar ham, amalda faqat grek, lotin, qadimgi yaxudiy, hozirgi tillardan - fransuz, italyan, ispan; qisman ingliz va nemis tillari tekshirish obyekti bo`ldi. Bu tillardan ko`proq fransuz tiliga asosiy e'tibor qaratildi. Shu tillarning o`ziyoq mualliflarning turli tillar tuzilishi uchun umumiy, ratsional tomonlarni belgilash maqsadini amalga oshirishga kifoya qiladi deb o`ylaydilar.

Nazallik lotincha «buRunga oid» ma’nosini ifodalaydi. Bu belgi bo`lgan unlilaRda tanglay paRdasining tushishi va havo oqimining biR vaqtida og’iz va buRun bo’shlig’idan o’tishi natijasida tovush buRun tembRiga ega bo’ladi. Buning natijasida og’iz unlisi burun unlisiga aylanadi.

Assimilyatsiya turkiy tillarda, xususan, o’zbek tilida keng tarqalgan hodisa bo’lib, nutqning moddiy zanjirida, ya’ni tovushlar ketma-ketligida ma’lum bir belgiga ko’ra ikkita noo’xhash undoshning so’zlovchining talaffuz qulayligiga intilishi tufayli o’xhash undoshga aylantirilishidir. Ko’rinadiki, muayyan leksema tarkibida ma’lum belgi asosida zidlanuvchi ikki undosh talaffuz noqulayligini

bartaraf qilish harakati tufayli zidlanish belgisini yo'qotadi, bir xil undoshlarga aylanadi. Natijada leksemaning og'zaki so'zlashuv varianti – uslubiy varianti maydonga keladi. Masalan, tarnov- tannov, shirmoy non- shirmonnon, badtar- battar kabi.

Unlilar reduktsiyasi. Bir bo'g'inli leksemalarda hamda ikki bo'g'inli leksemalarning birinchi bo'g'inidagi sonor undoshlar oldida kelgan tor unli sonor undosh ta'sirida reduktsiyaga uchraydi. Masalan, b(i)lan, b(i)roq, s(i)ra, b(i)r kabi.

Metateza. Leksema nomemasining variantlari tilda amal qiladigan metateza hodisasi tufayli ham ko'payadi. Metateza har qanday tilning ham diaxron, ham sinxron holati uchun mansubdir. Bunday holatdan o'zbek tili ham mustasno emas.

O'zbek tilida metateza shu tilning ikki davr oralig'idagi leksema nomemasining o'zgaruviga olib kelishi mumkin. Masalan, o'granmoq- o'rganmoq, yog'mir-yomg'ir. Shu bilan birgalikda, metatezaga uchramagan variant ham hozirgi kunda ayrim o'zbek dialektlarida saqlanayotgan bo'lisi mumkin. Bu esa tarixiy va dialektal variantlarning farqlanishiga olib keladi.

Proteza - fonetik moslashtirish. So'z boshida tovushlar mosligi natijasida leksema variantlarining ortishi muammosi dastlab Mahmud qoshg'ariy tomonidan bayon qilingan edi. Xususan, u qipchoq, o'g'uz tillarini hoqonicha turkcha tilga qiyoslar ekan, hoqonicha turkcha leksemalar boshidagi [y] undoshi qipchoq tillarida doimo [j] ga, o'g'uz tillarida esa nolga aylanishini bayon qiladi. Masalan, turkcha jinji, qipchoqcha jinji, o'g'uzcha inji.

Apakopa - fors-tojik hamda rus tili orqali o'tgan bir qator olinmalarning oxirgi bo'g'inida ikki va undan ortiq undoshlar qator kelishlari mumkin. Lekin bir bo'g'inda kelgan bu undoshlar og'zaki nutqda turkiy tillarning fonetik qonuniyatlariga moslashtiriladi va bir undosh tushiRib qoldiriladi. Masalan, go'sht-go'sh, g'isht-g'ish, baRg-bak, vaqt-vaq va boshq.)

Eliziya sandhi holatda qator kelgan har xil turdag'i ikki unlidan birining tushib qolishi hodisasidir. Sinerezis hodisasida qator kelgan unlilar o'zaro birikib, bir unliga aylansa, eliziya hodisalarida bu unlilardan biri tushib qoladi². Ana shu xususiyatlari bilan bu hodisalar bir-biridan farq qiladi.

Aferezis ham xuddi eliziya kabi sandhi holatda hosil bo'lgan ikkita qator unlidan birining reduktsiyalaiishidir. Sandhi holatda bir erda keluvchi ikkita har xil unlidan birinchisining reduktsiyalanib, o'z artikulyatsiyasini yo'qotishi eliziya bo'lsa, xuddi shunday sharoitda ikkinchi unlining reduktsiyalanishi aferezis sanaladi. Masalan, *narsa<na ersa, nechun<ne uchun* va b.

Sinerezis qator kelgan ikki unlining bir unliga aylanish hodisasidir.

Dissimilyatsiya. Leksema nomemasi tarkibidagi ma'lum belgisiga ko'ra ikki o'xshash undosh tovushning so'zlovchining talaffuz qulayligiga intilish harakati tufayli o'xshash belgilarning yo'qotilishi dissimilyatsiya hodisasini keltirib chiqaradi. Bunday hodisaning ro'y berishi esa leksema nomemasining og'zaki so'zlashuvga xos variantining hosil bo'lishiga olib keladi.

Fuziya. Turkiy tillarning aglyutinativ tabiatiga barchaga ma'lum. Aglyutinatsiyaning fuziyadan muhim farqlovchi belgilari sifatida har bir grammatic ma'noning alohida-alohida shakllar yoRdamida ifoda-lanishi, grammatic ma'noni ifodalovchi grammatic shakllarning ko'payishi bilan so'zning chapdan o'ngga qarab

cho'zilib borishi, leksik va gramma tik morfemalarning bir-biriga qo'shilish chokining ajralib turishi, shuningdek, gramma tik shakllarning qo'shilishi o'zak morfema-ning fonetik tuzilishini o'zgartirmasligi kabi belgilar ta'kidlanadi.

Takt – frazaning qismi bo'lib, o'z navbatida, kichik birliklardan – fonetik so'zlardan tashkil topadi.

Fonetik so'z – taktning (agar taktga ajralmasa, frazaning) qismi bo'lib, bir urg'uga ega bo'ladi. Fonetik so'z leksik va gramma tik ma'nodagi so'zga teng kelishi ham mumkin. Masalan, *Mehr nuri yog'ar doim yuzingizdan, ustozlar* da oltita fonetik va oltita leksik so'z mavjud; *Derazamning oldida bir tup o'rik oppoq bo'lib gulladi* jumlasida sakkizta leksik-grammatik, lekin oltita fonetik so'z mavjud.

Semasiologiya - til birliklari (til ishoralari)ni ma'no ji'atdan o'rganadi. Til ishoralari so'zning shakli va maonosi ji'atdan izo'lanadi. So'zning shakli deganda, uning tarkibidagi tovushlari, so'zning maonosi deganda, undan anglashilgan maono ko'zda tutiladi.

Konstituentiv munosabat "...dan tashkil topadi", "...ga kiradi" sxemasini o'zida namoyon etadi.

Nomema - morfemaning shakl tomoninining nomi

Monema (A. Martine), **semema** (Ufimtseva, Novikov) morfemaning ma'no tomonining nomi.

Etimologiya so'zlarning kelib chiqish masalalari, so'zning genetik ma'nosi, asl ma'nosi, so'zning ichki ma'nosi bilan shu'bullanadi.

Frazeologiya tildagi turg'un birikmalarni o'rganuvchi sohadir. Tilning lug'at boyligi ikki qatlamdan iborat bo'ladi. Lug'at boyligi birinchi qatlami so'zlardan tashkil topadi, ikkinchi qatlami esa semantik tomondan so'zga teng keladigan turli birikmalardan tashkil topadi. Bunday birikmalar tilshunoslikda frazeologik iboralar deb ataladi.

Ensiklopedik lug'atlar fan va texnikaning turli sohalarini o'z ichiga oluvchi lug'atlardir.

Filologik lug'atlar: izohli lug'atlar, sinonimlar, omonimlar, antonimlar lug'ati, dialektal, etimologik, orfografik, chastotali, terminologik lug'atlar, bir tilli, ko'p tilli lug'atlar kabi turlarga bo'linadi. Izohli lug'atlarda biror bir so'zning ma'nosini izo'lash uchun berilgan ta'rif va tavsif lug'at maqolasi deyiladi.

Onomasiologiya narsa va hodisalarga nom berish hamda uning sabab-qonuniyatlarini o'rganadi.

Onomastika atoqli otlarni o'rganadigan fan bo'lib, antroponimika (odamlar ismini o'rganadi), toponimika (geografik nomlarni o'rganadi), etnonimika (millatlarning nomlarini o'rganadi) dan tashkil topadi. Onomastika nomlashning sabab va qonuniyatlarini ilmiy ji'atdan asoslab beradi

Eksperimental fonetika - nutq tovushlarining fiziologik va akustik xususiyatlarini turli xil asbob-uskunalar yordamida o'rganadi. Tekshirishning ushbu usuli nutq tovushlarining alohida belgi-xususiyatlarini aniq belgilashga imkoniyat yaratadi

Fonologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida fonemalarning farqlovchi belgilarini o'rganuvchi fan sifatida e'tirof etildi. Fonemalarning bevosita nutq jarayonida reallashuvi esa fonetikaning o'rganish ob'ektiga aylandi.

Allafon (yunoncha, allos – boshqa, phone – tovush) – fonemaning reallashgani, aniq fonetik qurshov bilan asoslangan fonemaning varianti.

Allamorfizm – ma'lum sathni tashkil qiluvchi til birliklarining turli tiplari.

Amorf tillar (yunon. amorphous – -siz, be-, + morphē – forma – «shaklsiz, beshakl», «to'silgan», «o'zakli», «o'zagito'silgan») – so'z o'zgarishi mavjud bo'limgan tillar, grammatil affikslar yoq (kelishik, son, shaxs, zamon va h.z.) ikki so'zning bir-biri bilan birikuvi yoki yordamchi so'zlar orqali birikadi.

Analitik tillar (yunon. analysis – yechilish – «analiz, tahlil yordamida =osil qilinadigan», «разъединяющий») – тип языков, в которых грамматические отношения выражаются служебными словами, порядком слов, интонацией и т.п., а не словоизменением, т. е. не грамматическим чередованием морфем в пределах словоформы, как в синтетических языках.

5. Грамматическая категория – множество грамматических значений (граммем), которые не могут быть одновременно выражены у одной словоформы.

6. Грамматическое значение – значение, выражаемое словоизменительной морфемой (грамматическим показателем).

7. Изоморфизм (греч. isos — равный, одинаковый, подобный и морфо-форма) — однотипность структуры конститутивных языковых единиц различных уровней.

8. Историческое языкознание (Компаративистика) – область языкознания, имеющая целью реконструкцию синхронных состояний, не засвидетельствованных письменностью, и диахронических процессов в истории отдельных языков, истории групп родственных языков, включая установление происхождения языковых семей, языков и отдельных элементов их системы, в том числе установление генетического родства между языками, то есть их общего происхождения из одного источника (генеалогическая классификация языков).

9. Конверсия – переход одной части речи в другую без изменения словоформы.

10. Лингвистическая типология — раздел лингвистики, занимающийся выяснением наиболее общих закономерностей различных языков, не связанных между собой общим происхождением или взаимным влиянием. Типология стремится выявить наиболее вероятные явления в различных языках. В случае, если некоторое явление выявляется в представительной группе языков, оно может считаться типологической закономерностью, применимой к языку как таковому.

11. Моносиллабизм (моно... + гр. syllable слог-односложность) – преобладание односложных слов в каком-либо языке

12. Модальность (от лат. modus — размер, способ, образ) – категория, характеризующая способ действия или отношение к действию

13. Мотивация – взаимообусловленность формы и значения.

14. Полисинтетические (инкорпорирующие) языки – языки, в которых предложение стремится превратиться в одно слово.

15. Синтетические языки (греч. synthesis – составление – " получающийся

в результате синтеза", "объединяющий") - языки, в которых грамматические значения выражаются в пределах самого слова (аффиксация, внутренняя флексия, ударение, супплетивизм и т. д.), т. е. формами самих слов.

16. Тип языка - совокупность ведущих признаков языка, находящихся между собой в определённых связях, причём наличие или отсутствие какого - нибудь одного признака обуславливает наличие или отсутствие какого - нибудь другого признака или других признаков.

17. Языковая универсалия - (от лат. *universalis* - общий) — единообразный способ выражения внутрисистемных отношений языковых элементов, или однотипный по своему характеру процесс, дающий одинаковые результаты, проявляющиеся с достаточно высокой степенью частотности в различных языках мира.

18. Флективный язык - язык, способный присоединять многозначные морфемы.